

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

TASHKENBAYEVA TAXMINA BAXTIYOROVNA

**TAYANCH-HARAKAT TIZIMI BUZILGAN INSONLAR UCHUN
KIYIM LOYIHALASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
Of technical sciences**

Tashkenbayeva Taxmina Baxtiyorovna Tayanch-harakat tizimi buzilgan insonlar uchun kiyim loyihalash usulini takomillashtirish.....	3
Ташкенбаева Тахмина Бахтиёровна Совершенствование метода проектирования одежды для людей с нарушением опорно-двигательного аппарата.....	21
Taskenbaeva Takhmina Bakhtiyorovna Improvement of the method for designing clothes for people with musculoskeletal disorders.....	39
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	42

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

TASHKENBAYEVA TAXMINA BAXTIYOROVNA

TAYANCH-HARAKAT TIZIMI BUZILGAN INSONLAR UCHUN
KIYIM LOYIHALASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH

05.06.04-Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/T5997 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasidagi (www.titli.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nigmatova Fatima Usmanovna
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdukarimova Mashxura Abduraimovna
texnika fanlari doktori, professor

Sharipova Saodat Tolkunovna
texnika fanlari falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.T.21.01 - raqami Ilmiy kengashning 2026 yil «19» fevral soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100 Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№274 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100 Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «05» fevral kuni tarqatildi
(2026 yil «05» fevral №274 raqamli reestr bayonnomasi).

X.H. Kamilova
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z. Mamatov
Ilmiy daraja beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

N.R. Xanxadjayeva
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bir milliarddan ortiq kishi u yoki bu shakldagi nogironlikka ega. Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan shaxslar uchun maxsus kiyimlarni loyihalash bilan bog'liq mahsulotlar va xizmatlar jahon bozorining hajmi demografik o'zgarishlar, arzon moda darajasining oshishi va nogironlarning ijtimoiy integratsiyasining kengayishi ta'sirida barqaror o'sishni ko'rsatmoqda. Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, global moslashuvchan kiyim bozori qiymati 2019-yildagi 12,5 milliard AQSH dollaridan 2032-yilda prognoz qilinayotgan 29,8 milliard AQSH dollarigacha oshdi¹. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moslashuvchan va funksional kiyimlar bozori mintaqalar bo'yicha notekis rivojlanmoqda: bozor ulushining 42% Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga, 24% Shimoliy Amerikaga va 20% Yevropaga to'g'ri keladi, bu esa keksa aholining o'sishi, inklyuziv mahsulotlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning kuchayishi, qulay va funksional yechimlarga bo'lgan talabning oshishi bilan muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda zamonaviy raqamli va muhandislik-konstruktorlik texnologiyalari asosida tayanch-harakat tizimi buzilgan insonlar uchun kiyimlarni loyihalash usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish, shuningdek, buyumlarni moslashuvchan konstruksiyalash va modellashtirish jarayonlari samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda kiyimlarning ekspluatatsiya qulayligi va funkcionalligini ta'minlovchi modulli, transformatsiyalanuvchi elementlarini dinamik-antropometrik tahlil qilish, ergonomik modellashtirish va integratsiyalash usullarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, kiyimlarning qulaylik va xavfsizlik darajasini oshirish, ularning gigiyenik, ekspluatatsion va rehabilitatsiya xususiyatlarini yaxshilash, shuningdek, kam vaqt va moddiy xarajatlarni talab qiladigan raqamli uch o'lchovli skanerlash, virtual kiyib ko'rish va shaxsiylashtirilgan loyihalash usullarini o'z ichiga olgan resurs tejamkor va ekologik yo'naltirilgan loyihalash texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda yengil sanoatni rivojlantirish, kiyimlarni loyihalashning innovatsion texnologiyalarini joriy etish va moslashuvchan kiyim sanoati korxonalarining ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati va funkcionalligini oshirishda barqaror natijalarga erishish imkonini beradi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2023-2030-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston - 2030"² strategiyasida ilmiy-texnik salohiyatdan samarali foydalanish, yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni rivojlantirish va sanoatda raqamli yechimlarni joriy etish kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tayanch-harakat tizimi buzilgan insonlar uchun kiyimlarni loyihalash usullarini takomillashtirish, buyumlarning ergonomikligi va xavfsizligini oshirish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlash, konstruksiyalash va modellashtirishning

¹Global Adaptive Clothing Market – Growth Trends and Forecasts

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni.

takomillashtirilgan resurstejamkor va energiyatejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-maydagi PF-5989-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2018-yil 18-dekabrda PQ-4063-son “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022 yil 26-oktyabrda PQ-411-son “Aholini sifatli dori-darmon va tibbiy buyumlar bilan ta‘minlash yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2024-yil 27-fevralda PQ-88-son "Muhtoj shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va rehabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta‘minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorlari hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurstejamkorlik» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Adaptiv kiyimlarni loyihalashni rivojlantirishga xorijlik olimlar: G. Pullin (Buyuk Britaniya), K. McBee-Black, J. Ha-Brookshire (AQSH), E.H. Gavel (Kanada), P. Chi-Leung Hui (Gonkong), O‘.Ural (Turkiya), N. Poonia (Hindiston) va boshqalar fundamental hissa qo‘shganlar. Rossiyalik olimlar: A.A. Bikbulatova, I.N. Saveleva, I.A. Petrosova, V.V. Getmanseva va boshqalar atipik morfologiyaga ega bo‘lgan figuralar antropometriyasi va konstruksiyalash sohasida salmoqli tadqiqotlar olib borishgan. O‘zbekistonda tibbiy to‘qimachilik va davolash buyumlari masalalari X.A. Alimova, F.U. Nigmatova, J.A. Axmedov, Sh.T. Qosimov va boshqalarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Biroq, hududning iqlim sharoitini hisobga olgan holda nogironlar aravachasidan foydalanuvchilarning faol hayoti uchun kundalik-qulay kiyimlarni yaratishga bag‘ishlangan kompleks tadqiqotlar hozirgi kunga qadar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2023-yil 28-yanvardagi 6-son bayonnomasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Tayanch-harakat tizimi buzilgan insonlar uchun kiyimining qulayligi, funksional va ergonomik, hamda tibbiy-ijtimoiy xususiyatlarini oshirishni ta‘minlovchi loyihalash usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ekspluatatsiya sharoitlari, morfologik shikastlanishlar tabiati, tayanch-harakat tizimi buzilgan shaxslarning kiyimga bo‘lgan ehtiyojlari, ularning ijtimoiy va mehnat hayotiga moslashuvi xususiyatlarini har tomonlama o‘rganish;

jismoniy va ruhiy qulaylikni ta'minlash nuqtai nazaridan moslashuvchan kiyim materiallarining sifat ko'rsatkichlari ro'yxatini belgilash;

materiallar xususiyatlarini tajribaviy tadqiq etish hamda umurtqa pog'onasi va orqa miyasi shikastlangan shaxslar uchun moslashuvchan buyumlar tayyorlashda oqilona material to'plamini tuzish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

o'xshashlik nazariyasidan foydalanib, moslashuvchan mahsulotlarni tanlab olish masalasini hal qilish;

nogironlar aravachasi yordamida harakatlanadigan tayanch-harakat tizimi buzilgan shaxslar uchun moslashuvchan kiyimlarni loyihalash usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida turli maqsadlarga mo'ljallangan moslashuvchan kiyimlarni loyihalash va tayyorlashda materiallarni konfeksiyalash jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmeti – materiallarni konfeksiyalashning ilmiy asoslangan nazariyasi, materiallar xossalarining izlanayotgan ko'rsatkichlari qiymatlarini bashoratlash usullari, kiyim modellarining konstruktiv va texnik yechimlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish loyiha ob'ektiga tizimli yondashuv nazariyasiga, tahlil va sintez, taqqoslash, guruhlash va tasniflash, elektron mikroskopiya, ekspert baholash usullariga asoslanadi. Eksperimental tadqiqotlar laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida o'tkazildi. Ishda Windows Xp (Word, Excel), Auto CAD dasturiy ta'minotlar, avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi umurtqa pog'onasi va orqa miya jarohati oqibatida yuzaga kelgan statodinamik funksional buzilishlarga ega insonlarning o'ziga xos xususiyatlarini va zamonaviy texnologiyalarni uyg'unlashtirgan holda funksional kiyimni loyihalashga nisbatan kompleks yondashuvdan iborat:

tayanch-harakat tizimi buzilgan insonlarning vaqt byudjeti va turmush tarzini o'rganish asosida turli maqsadlarga mo'ljallangan buyumlarni manzilli loyihalash jarayonini optimallashtiradigan "nogironlar-moslashuvchan kiyim-muhit" tizimida kiyim qulayligi modeli taklif etilgan;

o'xshashlik nazariyasidan foydalanib, etalon tizimning ma'lum bazaviy qiymatlari asosida materiallarni tanlash usuli taklif etilgan (turli maqsadlardagi kiyimlarning gigiyenik xususiyatlarini aniqlash misolida);

nogironligi bo'lgan shaxs tanasining terlash xususiyatlarini hisobga olgan holda, lokal havo almashinuvi va bakterial himoya sohalarining topografik joylashuviga asoslangan adaptiv kiyimni loyihalash uslubi ishlab chiqilgan;

nogironlik aravachasidan foydalanuvchi insonlarning ekspluatatsion ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlovchi moslashuvchan kiyimlarning ratsional konstruktiv-texnologik yechimlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari moslashuvchan kiyimlarni loyihalash usullari, ratsional konstruktiv parametrlari va ularga ishlov berishning texnologik usullarini takomillashtirishdan iborat bo'lib, ishlab chiqarish sharoitida kiyimlarni tayyorlash va ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirishni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalaridan rehabilitatsiya, tibbiyot va ishlab chiqarish muassasalarida kiyim-kechaklarni ishlab chiqishda foydalanish, shuningdek, kichik seriyali va individual tikish uchun moslashtirish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va ilmiy tadqiqot natijalarining taqqoslanganligi, ularning baholash mezonlariga mosligi, tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "inson-kiyim-muhit" tizimi ishlashining o'xshashlik modellaridan foydalanish asosida nogironlar aravachasi foydalanuvchilari uchun kiyim qulayligi modelini yaratish algoritmi taklif etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.

Tayanch-harakat tizimi buzilgan shaxslarning funksional va ergonomik xususiyatlarini oshirishni, shuningdek, tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiyasiga ko'maklashishni ta'minlaydigan kiyimlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy va tajribaviy tadqiqot natijalari asosida:

nogironlik aravachasida harakatlanuvchi shaxslarning bahor-kuz mavsumida kundalik kiyishiga mo'ljallangan erkaklar ko'ylagi, polo va shimi, sport komplektining me'yoriy-texnik xujjatlari "Golden Home Textile" MChJ, "Nurtex" MChJ, "BHR OUTPUT" MChJ va "IMRON TEXTILE GROUP" XK korxonalarida sinovdan o'tkazildi va ishlab chiqarishga joriy etildi ("O'zto'qimachilik sanoat" Uyushmasining 2025 yil 15 dekabrda №02/06-2898 guvohnomasi). Natijada, kundalik va sport komplektlarning konstruksiyasi va o'ziga xos ishlov berish texnologiyasining qulayligiga, yechish va kiyishda harakatini cheklamasligiga va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni mahalliy xom ashyodan ishlab chiqarish hisobiga iqtisodiy xarajatlar kamayishiga erishilgan

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda hamda ilmiy seminarlarda muhokamalardan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 7 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda, 2 tasi Scopus va Web of Science bazasida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti bayon etilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mutanosibli keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, tadqiqot natijalarini

amaliyotga joriy qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan insonlar uchun moslashuvchan kiyimlarni loyihalash masalasining holati tahlili”** nomli birinchi bobida umurtqa pog'onasi va orqa miya jarohati (UPOMJ) bo'lgan shaxslar nogironligini tavsiflovchi ilmiy tadqiqotlar sharhi, statistic ma'lumotlar, xalqaro klinik tasnif, differensial tashxis, hamda ularning ijtimoiy-shaxsiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar bayon etilgan. Keyingi tadqiqotlar uchun iste'molchilar guruhi aniqlab olindi: mehnatga layoqatli yoshdagi (70-80% 40 yoshdan kichik) erkaklar bo'lib, oyoqlari butunlay harakatsiz (paraplegiya) sababli nogironlik aravachadan foydalanadigan, aqli raso va faol turmush tarziga ega shaxslar.. Aravachada o'tiruvchi inson tanasining morfologiyasi, ergonomikasi va fiziologik xususiyatlariga ommaviy ishlab chiqarilgan kiyimlarga moslashtirilmaganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Umurtqa pog'onasi va orqa miya shikastlangan shaxslar uchun moslashuvchan kiyimlarni loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlarni shakllantirish”** deb nomlangan ikkinchi bobi moslashuvchan kiyimlarni loyihalash uchun dastlabki ma'lumotlar to'plamini aniqlashga bag'ishlangan. “O'zbekiston Respublikasi nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish va protezlash milliy markazi” bazasida o'tkazilgan sotsiologik va antropometrik tadqiqotlar natijalari (2023-2025 yy.) taqdim etilgan. Respondentlar sifatida travmatologiya va ortopediya bo'limining I va II-guruh nogironligi bo'lgan 200 nafar bemorlari, shuningdek, ularga g'amxo'rlik qiluvchi shaxslar va tibbiyot xodimlari ishtirok etdi. Bemorlarning yoshi 16 yosh va undan yuqori bo'lgan (1a-rasm).

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, nogironlikning asosiy sababi umurtqa pog'onasi va orqa miya jarohatlari, umurtqa churralari, bolalikdan nogironlik (bolalar serebral falaji (BSF), Miopatiya) va boshqalar bo'lib, ularning harakatlanish vositasi nogironlar aravachasidir (1b-rasm).



1-rasm. Respondentlarning: a) yoshi va b) nogironlik sabablari bo'yicha taqsimlanishi


Nogironlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga joylashtirishda kiyim-kechak muhim rol o'ynaydi (respondentlarning 65,9%). Nogironlarning vaqt byudjeti va turmush tarzini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar asosida iste'molchilarning (80%) mavjud tipaviy kiyimlardan aksariyat holda qoniqmasligi aniqlandi. Standart bichimdagi kiyimning eng muhim noqulayliklari orasida

quyidagilar ajratib ko'rsatilgan: yotoq yaralar paydo bo'lishi va tanaga bosim o'tkazish xavfi, harakatlanishdagi noqulaylik, mustaqillik va harakatchanlikning cheklanishi. Moslashuvchan kiyimlarga qo'yiladigan asosiy talablar yuqori darajadagi funkcionallik, turli iqlim sharoitlari va mexanik shikastlanishlardan himoya qilish, ergonomik muvofiqlik, shakl barqarorligi va mahsulotlarning xizmat muddati hisoblanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun sifatli va estetik kiyim-kechaklarning yetarli darajada mavjud emasligi ularning jamiyatga faol integratsiyalashuvi va muvaffaqiyatli ishga joylashishi uchun ijtimoiy to'siqlardan biriga aylanmoqda, jahon jamiyatida esa inklyuziyaning rivojlanishi turli mo'ljaldagi kiyim-kechaklarning kengroq assortimentini ishlab chiqishni talab qilmoqda.

Turli hayotiy vaziyatlarga mos va ehtiyojlarni qondiradigan kiyimlarning bazaviy nomenklaturasi aniqlandi. Ularga quyidagilar kiritilgan: uy, uxlash va dam olish uchun, ko'chaga chiqish va sayr qilish uchun, kundalik/ishbilarmonlik, sport va rehabilitatsiya, tantanali/ijtimoiy, tibbiy/reabilitatsiya kiyimlari.

Umurtqa pog'onasi va orqa miyasi shikastlangan odamlarning tashqi tana shakli morfologiyasining o'zgarishiga turmush tarzining ta'siri tasdiqlangan. Ko'pincha aravachada o'tiruvchi erkaklar tananing pastki qismida mushak atrofiyasi (son va dumba hajmlarining kamayishi), tananing yuqori qismida kompensator rivojlanish (yelka kamari va qo'llarning kattalashishi), qomatning o'zgarishi (83% hollarda) va o'tirgan holatda og'irlik markazlarining siljishi kuzatiladi.

18 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan aravachali erkaklarning "yotgan" va "o'tirgan" holatlarida (N=130 kishi) o'tkazilgan antropodinamik tadqiqotlar va ma'lumotlarni variatsion statistika usullari bilan matematik qayta ishlash (2-rasm) moslashuvchan kiyimlarini sanoat miqyosida ishlab chiqarish uchun 170-104-92 o'lchamdagi tayanch qomat parametrlarini $R(x)=0,95$ ishonchlilik ehtimoli bilan aniqlash imkonini berdi.



2-rasm. Tana uzunligi va ko'krak aylanasi bo'yicha variatsion egri chiziqlar


Olingan ma'lumotlar asosida nogironlik-aravachali shaxsning moslashuvchan kiyimida konstruktiv qo'shimchalarning minimal qiymatlari asoslandi va aniqlandi: erkaklar ko'ylagi va sport fufaykasi (1-jadval).

Erkak paraplegistlar kiyimida konstruktiv qo‘shimchalarning minimal qiymatlari

Qo‘shimchalar nomi	Tipaviy kiyimda	Loyihai		Dinamik effekt (Di), cm
		erkaklar ko‘ylagi	sport fufaykasi	
Ko‘krak aylanasiga	6-10	12,0	9,0	1,2
Bel aylanasiga	2-2,5	2,0	2,0	0,5
Yelka aylanasiga	3-3,5	3,0	2,0	1,0
Orqa bel uzunligiga	0	3,0	2	1,3
Ort kenglikka	2-3	3,0	2,0	3,2
Eng o‘mizi chuqurligiga	2,5-3,0	5,5	4	3,0

Dissertatsiyaning “**Materiallar tizimining xususiyatlarini o‘rganish va moslashuvchan kiyimning qulayligini modellashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobida umurtqa pog‘onasi va orqa miya shikastlangan shaxslar uchun moslashuvchan kiyimning fiziologik va gigiyenik qulayligini ta‘minlash bo‘yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Moslashuvchan kiyimning qulaylik nazariyasiga asoslangan adaptiv kiyimni loyihalash usuli taklif etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, qulaylik-komfort inson, uning kiyimi va uning atrof-muhiti o‘rtasidagi jismoniy muvozanat sifatida aniqlanadi, bu fiziologik, ijtimoiy, psixologik qulaylikdan iborat. Komfortlik modeli “inson-kiyim-muhit” tizimining elementi sifatida ikki komponentga ega: jismoniy va ijtimoiy-psixologik, ularning har biri kiyimning atribut-parametrlari bilan tavsiflanadi (3-rasm).



a


b

3-rasm. Nogironlar uchun moslashuvchan kiyimning qulaylik modeli (a) va parametr-atributlari (b)

Nogiron-aravachali shaxs moslashuvchan kiyimining qulaylik modeli ko‘p qatlamlilik (layering system) tamoyiliga asoslangan bo‘lib, uning har bir qatlami turli funksiyalarni bajaradi: 1-qatlam (ichki, “next-to-skin”), namlikni yoqotish, ishqalanishni minimallashtirish va antibakterial himoya; 2-qatlam (issiqlik saqlash,

“mid-layer”) - o‘tirgan holatda issiqlik izolyatsiyasi va havo o‘tkazuvchanlik; 3-qatlam (himoya, “tashqi qobiq”) - bug‘ o‘tkazuvchanlikni saqlagan holda atmosfera ta’siridan himoya qilish. Moslashuvchan kiyimning ko‘p qatlamliligi tamoyili materiallarni va uning sifat ko‘rsatkichlarini tabaqalashtirilgan holda tanlashni taqozo etadi.


Yelka va bel moslashuvchan buyumlari uchun materiallarning ustuvor sifat ko‘rsatkichlarini (SK) aniqlash uchta ekspert guruhining nisbiy ko‘rsatkichlaridan foydalangan holda kvalimetriya metodologiyasi asosida amalga oshirildi: nogironlar, ularga g‘amxo‘rlik qiluvchi shaxslar va tibbiyot xodimlari. Vaznliligini hisobga olgan holda afzal xususiyatlar sifatida quyidagilar aniqlandi: xom ashyo tarkibi, havo o‘tkazuvchanlik, gigroskopiklik, antibakterial xususiyatlar va shakl barqarorligi (4-rasm). Ushbu xususiyatlar va sifat ko‘rsatkichlari keyinchalik turli xil adaptiv kiyimlarni tanlashda hisobga olingan.




4-rasm. Moslashuvchan kiyimlar uchun materiallar sifat ko‘rsatkichlarining ahamiyatligi qiyosiy diagrammasi

Moslashuvchan kiyimlarni ishlab chiqarishda materiallarning oqilona paketini ilmiy asosda konfeksiyalash maqsadida tuzilishi bo‘yicha eng keng tarqalgan hamda iste’mol xususiyatlari yaxshilangan (kam g‘ijimlanadigan va kam kirishadigan pardoqli) materiallar ko‘rib chiqildi.

Materiallarining sifat ko‘rsatkichlarini ekspert baholash natijalari va turli tajriba namunalarining (ko‘ylak uchun 12 xil mato, shim uchun 7 xil mato, futbolka uchun 9 xil trikotaj mato, sport kostyumi uchun 5 xil) eksperimental tadqiqoti, shuningdek, ularni kompleks baholash natijalariga (5-rasm va 6-rasm) asoslangan holda moslashuvchan kiyimning bazaviy va ustki qatlamlari uchun eng oqilona materiallar aniqlandi. Ularga quyidagi materiallar guruhi kiradi: ko‘ylaklik gazlamalardan - 2, 3, 4, 5, 9 va 11-namunalar; bazaviy qatlam uchun trikotaj polotnolardan - pike va suprem; ustki qatlam uchun trikotaj polotnolardan - 2 ipli futer.



5-rasm. Ko'ylakbop gazlamalarning sifat ko'rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasi



6-rasm. Tolali tarkibning materiallarning havo o'tkazuvchanligi va gigroskopikligiga ta'siri

Moslashuvchan kiyimlarning qulayligini obyektiv baholash uchun o'xshashlik nazariyasiga asoslangan konfeksiyalash usuli qo'llanildi. O'xshashlik nazariyasi o'xshashlik imkoniyatini o'rnatadi va bir hodisaning berilgan xarakteristikalari bo'yicha boshqa o'xshash hodisalar guruhining xarakteristikalari haqida qanday fikr yuritish va ularni bazaviy xarakteristikalarni oddiy qayta hisoblash yo'li bilan olish mumkinligini ko'rsatadi.

O'xshashlik nazariyasidan foydalanib konfeksiyalash masalasini yechishda "inson-kiyim-muhit" tizimini tavsiflovchi umumiy funksional bog'liqlik (f) ko'p qatlamli kiyimlar uchun quyidagi ko'rinishda ifodalanishi mumkin:

$$f_{MO} = f(E, B_{nm}, \tau_u, t, \delta, B_p, \lambda, a, S, \rho, B_n, v, \tau_\theta) \quad (1),$$

bu yerda "odam" kichik tizimining parametrlari: energiya sarfi (E); namlik yo'qotilishi (B_{nm}); inson tanasining sirt harorati (τ_u); muhitda bo'lish vaqti (t); "kiyim" kichik tizimining parametrlari: qalinlik (δ); havo o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti (B_p); issiqlik o'tkazuvchanlik (λ); harorat o'tkazuvchanlik (a); kiyimning maydoni (S); sirt zichligi (ρ); namlik o'tkazuvchanlik (B_n); "muhit" kichik tizimining parametrlari - shamol tezligi (v); havo harorati (τ_θ).

Boshlang'ich axborot sifatida qabul qilingan aniq maqsadli "inson-kiyim-muhit" tizimi uchun kiyimning ma'lum analoglari ma'lumotlari asosida materiallarning bazaviy ko'rsatkichlari qiymatlari va "kiyim" quyi tizimining o'xshashlik mezonlari aniqlandi. O'xshashlik nazariyasini qo'llab o'lchamlarning mustaqillik shartiga ko'ra (yagona o'lchov tizimida), havo o'tkazuvchanlik, gigroskopiklik va issiqlik-fizik parametrlarini hisobga oluvchi shaxsiy qulaylikning (Kik) xususiy va kompleks mezonlari shakllantirildi va hisoblandi.

Parametrlarning bazaviy qiymatlari: $E = 99Vt$; $T = 3600$; $V = 5 \text{ m/s}$; $\tau = 42,3$ ($\Delta\tau = 305,3 - 263 = 42,3K$)

Xususiy mezonlar:

$$\text{a) } \pi_{\delta} = \frac{\delta}{v \cdot t} - \text{qalinlik;} \quad \text{б) } \pi_{M_s} = \frac{M_s \cdot v^4 \cdot t^7}{E} - \text{yuza zichligi;}$$

$$\text{в) } \pi_{B_p} = \frac{B_p}{v} - \text{havo o'tkazuvchanlik;} \quad \text{г) } \pi_{\varepsilon} = \frac{\varepsilon \cdot v^3 \cdot t^6 \cdot \tau}{E} - \text{elektrlanuvchanlik;}$$

$$\text{e) } \pi_p = \frac{P \cdot v^4 \cdot t^8}{E} - \text{uzilish kuchi;} \quad \text{д) } \pi_{\kappa} = \frac{\kappa}{v \cdot t} - \text{kapillyarlik;}$$

“Inson-kiyim-muhit” tizimi qulayligining kompleks mezoni esa xususiy mezonlarni birlashtirib, parametrlarning multiplikativlik tamoyilini hisobga olgan holda olingan.

Kik qiymati materiallarning bazaviy (maksimal) ko'rsatkichi va tanlangan optimal varianti bo'yicha hisoblangan hamda qiyosiy tahlil qilingan.

Qulaylik mezoni ifodasi quyidagicha:

$$K_{\text{нк}} = \frac{\pi_{B_p} \cdot \pi_{\kappa} \cdot \pi_p}{\pi_{\delta} \cdot \pi_{M_s} \cdot \pi_{\varepsilon}}, \quad (1)$$

1. Ko'ylakbop bazaviy mato uchun xususiy mezonlarni hisoblash:

$$K_{\delta} = \frac{12 \cdot 10^{-3} \cdot 29 \cdot t^{-1} \cdot 5681 \cdot t^8}{0,017 \cdot 10^{-6} \cdot 0,44 \cdot t^7 \cdot 21256,81 \cdot t^2} = 0,96 \quad (2)$$

Ko'ylakbop matoning tanlangan optimal varianti uchun (100% Lyoccell)

$$K = \frac{17,36 \cdot 10^{-3} \cdot 40 \cdot t^{-1} \cdot 1900 \cdot t^8}{0,011 \cdot 10^{-6} \cdot 0,559 \cdot t^7 \cdot 17625 \cdot t^2} = 0,94 \quad (3)$$

Qulaylik mezonlarining bazaviy va hisoblangan qiymatlarini taqqoslaymiz:

$$\Delta K = \frac{K_{\delta} - K}{K_{\delta}} \cdot 100 = \frac{0,96 - 0,94}{0,96} \cdot 100 = 2,08 \quad \Delta K = \frac{K_{\delta} - K_{\text{о6щ}}}{K_{\delta}} \cdot 100 = -13,54\% \quad (4)$$

Xulosa: 100% liotselldan to'qilgan matoning qulaylik mezoni bazaviy analogga nisbatan 13,5% ga yuqori.

2. Bazaviy trikotaj to'qimasi uchun xususiy mezonlarni hisoblash:

$$K = \frac{\pi_{B_p} \cdot \pi_{\kappa} \cdot \pi_p}{\pi_{\delta} \cdot \pi_{M_s} \cdot \pi_{\varepsilon}} = \frac{30 \cdot 10^{-3} \cdot 20 \cdot t^{-1} \cdot 1578,28 \cdot t^8}{0,017 \cdot 10^{-6} \cdot 1,0732 \cdot t^7 \cdot 4806,81 \cdot t^2} = 0,83. \quad (5)$$

Optimal variant uchun qulaylik mezonini hisoblash:

50% paxta + 50% modal:

$$K_{(50\% \text{ хлопок} + 50\% \text{ modal})} = \frac{33,1 \cdot 10^{-3} \cdot 15 \cdot t^{-1} \cdot 2073,86 \cdot t^8}{0,017 \cdot 10^{-6} \cdot 1,0757 \cdot t^7 \cdot 4913,64} = 0,88. \\ \Delta K = \frac{0,83 - 0,88}{0,83} \cdot 100 = -6,02\%. \quad (6)$$


$K_{(50\% \text{ paxta} + 50\% \text{ modal})}$ $K_{100\% \text{ paxtaga}}$ nisbatan 6,02% ga ko'p.

$$\Delta K = \frac{0,83 - 1,03}{0,83} \cdot 100 = -24,09\% \quad (7)$$

Trikotaj polotnosining qulaylik mezoni (50% paxta + 50% modal) bazaviy paxta namunasidan 24,09% ga yuqori.

O'xshashlik nazariyasi asosida ishlab chiqilgan konfeksiyalashning ilmiy asoslangan usuli moslashuvchan kiyimning qulayligini baholash, binobarin, ekspluatatsiya jarayonida to'qimachilik materiallarining sifatini bashorat qilish va boshqarish imkonini beradi. Bu esa, shubhasiz, adaptiv kiyimlarni loyihalash muddatini qisqartiradi hamda ularni to'qimachilik va tikuvchilik sanoatida qo'llash uchun tavsiya etish imkonini beradi.

Yuqori darajadagi qulaylikka ega bo'lgan adaptiv kiyimlarni loyihalash uchun ko'p qatlamli materiallar tizimining antibakterial himoyasini oshirish bo'yicha ham maxsus tadqiqotlar o'tkazildi. Minor usulini qo'llash natijalari tinch holatda va jismoniy mashqlarni bajarish davomida tana yuzasining eng ko'p terlaydigan qismlarini ("iqlim zonalari") aniqlash va erkaklar tanasi yuzasining ter ajratish darajasi bo'yicha zonalarga bo'linishining topografik sxemalarini ishlab chiqish imkonini berdi (7,8-rasmlar).



5-rasm. Minor sinamasini bajarishda sinaluvchilar zonalarining fotosuratlar

6-rasm. Qomat yuzasini terlash darajasi bo'yicha zonalashtirish sxemalari (fragment)

Yuqori namlik va mahalliy gipertermiya sharoitida ko'rsatilgan zonalarda mikroorganizmlarning ko'payishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Ulardan tanani himoyalash uchun to'qimachilik namunalari nanomodifikatsiyasi qo'llanilgan. Faol komponentlar sifatida tarkibida 0,00324% AgNZ bo'lgan 5-35 nm o'lchamli kumush (Ag) nanozarrachalaridan foydalanildi. Optimal namunalarga (liotsell va suprem) ishlov berish shimdirish va purkash usullari bilan amalga oshirildi. To'qima namunalari mikroblarga qarshi faolligi O'zR FA Mikrobiologiya instituti laboratoriyasida o'rganildi. Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar eritma (purkash yoki shimdirish) bilan ishlov berilgan beshta to'qimachilik materiallari namunalari beshta turli test-mikroorganizmlarga nisbatan antimikrob faolligini ko'rsatadi: Escherichia coli (ichak tayoqchasi), Bacillus subtilis (pichan tayoqchasi),

Pseudomonas aeruginosa (ko‘k yiringli tayoqcha), *Staphylococcus aureus* (tilla rang stafilokokk) va *Candida albicans* (achitqisimon zamburug‘) (2-jadval).

2-jadval

To‘qima namunalarning antimikrob faolligi

Namunalar *	<i>E. coli</i>	<i>B. subtilis</i>	<i>P. aeruginosa</i>	<i>S. aureus</i>	<i>C. albicans</i>
1	-	-	3x3 mm	1x3 mm	-
2	3x5 mm	2x5 mm	2x5 mm	2x4 mm	2x2 mm
3	3x2 mm	-	-	3x3 mm	3x2 mm
4	-	4x1,5 mm	-	-	4x3 mm
5	5x5 mm	4x5 mm	5x3 mm	5x3 mm	5x3 mm

*1- Liotsell - eritma purkalgan, 2- qora suprem trikotaj (x/b 50% /modal 50%) - eritma purkalgan, 3- oq suprem trikotaj (x/b 50% /modal 50%) - eritma purkalgan, 4- Liotsell - eritma shimdirilgan, 5- qora trikotaj (x/b 50% /modal 50%) - eritma shimdirilgan.

2-jadval tahlili natijalaridan ko‘rinib turibdiki, eng katta va keng spektrli faollikni 5-namuna (eritma shimdirilgan qora trikotaj) namoyon qiladi. U beshta test-mikroorganizmlarning o‘shishini kuchli bostirishni ko‘rsatadi, eng katta faollik zonalari, shu jumladan *E. coli* uchun 5x5 mm va boshqa mikroorganizmlar uchun 5x3 mm. Bu shuni ko‘rsatadiki, shimdirish usuli va ushbu turdagi mato eritma bilan birgalikda eng samarali hisoblanadi.

№5-namunaning yuvilgandan keyingi antimikrob faolligi barqarorligini tahlil qilish bo‘yicha tadqiqot natijalari (3-jadval) shimdirish usulida eritma bilan ishlov berilgan suprem (50% paxta + 50% modal) trikotaj to‘qimasining mikroblarga qarshi faolligi ko‘p marotaba yuvish sikllaridan so‘ng barqarorligini ko‘rsatdi.

3-jadval

Yuvishdan keyin mato namunalarning antimikrob faolligi barqarorligini tahlil qilish


№	Test-kultura	Yuvishdan oldin (nazorat)	10 marta yuvgandan keyin	20 marta yuvgandan keyin	Faollik saqlanib qoldi*
1	<i>E. coli</i>	10,0 mm	10 mm	12 mm	120%
2	<i>B. subtilis</i>	16 mm	13 mm	14 mm	87,5%
3	<i>P. aeruginosa</i>	16 mm	14 mm	12 mm	75,0%
4	<i>S. aureus</i>	11 mm	12 mm	10,0 mm	90,9%
5	<i>C. albicans</i>	3,0 mm	10,0 mm	3,0 mm	100%

*20 marta yuvilgandan so‘ng, nazorat namunasidan %.


Keltirilgan ma‘lumotlar grammusbat bakteriyalar (*S. aureus*, *B. subtilis*) va zamburug‘larga (*C. albicans*) nisbatan yuqori barqarorlikni ko‘rsatadi. Faollikning eng katta pasayishi *P. aeruginosa* ga qarshi qayd etildi. 20 marta yuvishdan so‘ng *E. coli* ga qarshi bostirish zonasining kutilmaganda ko‘payishi ijobiy natija bo‘lib, bu vaqt o‘tishi va yuvish sikllari davomida nanozarrachalarning samarali, nazorat ostida chiqarilishini ko‘rsatadi, bu esa kiyimdan uzoq muddat foydalanish uchun, ayniqsa nogironlar aravachasida yuradiganlar uchun juda muhimdir.

Dissertatsiyaning “**Umurtqa pog‘onasi va orqa miya shikastlangan shaxslar uchun moslashuvchan tikuv buyumlarining loyihaviy yechimlarini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish**” deb nomlangan to‘rtinchi bobi moslashuvchan kiyim to‘plamlarini ishlab chiqish, tayyorlash va sinovdan o‘tkazish hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini hisoblashga bag‘ishlangan.

Kundalik komplekt: moslashuvchan ko'ylak, shim va polo, sport komplekti: moslashuvchan futbolka, tolstovka va shim modellari taklif etilgan. Modellar bemorlar, tibbiyot xodimlari va bemorlarni parvarish qiluvchi shaxslarning fikrlarini, shuningdek patent tadqiqotlari natijalarini, tegishli ravishda me'yoriy hujjatlar talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Uzoq vaqt davomida kreslo-aravachada bo'lgan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun buyumlarni loyihalashda funktsionallik tamoyili loyiha yechimining asosiy o'zagi sifatida asos qilib olingan (9,10-rasmlar):



7-rasm. Kundalik to'plam model konstruksiyalarining chizmalari:
a-erkaklar ko'ylagi; b-polo futbolka; v-shim



8-rasm. Sport to'plamining model konstruksiyalari chizmalari:
a- futbolka; b- tolstovka; v- shimlar

Eksperimental namunalar rehabilitatsiya va protezlash milliy markazi bazasida real statsionar sharoitida sinovdan o'tkazildi, bunda komfort darajasi sinaluvchining subyektiv his-tuyg'ulari bo'yicha aniqlandi. Sinaluvchilar "aravachada o'tirgan" holatda qomatga statik va dinamik moslikning yuqori darajasini, komplektda bo'lish xavfsizligini, yechish/kiyish qulayligini, shuningdek, yuqori estetik ko'rsatkichlarni tasdiqladilar. Mahsulotlar sifati sezilarli funktsionalligi bilan ajralib turishi, import namunalaridan qolishmasligi aniqlandi. Sinov bayonnomalari olindi.

Tayanch-harakat tizimi buzilgan shaxslarning funksional va ergonomik xususiyatlarini oshirishni, hamda tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiyasiga ko'maklashishni ta'minlovchi kiyimlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy va tajribaviy tadqiqot natijalari asosida:

nogironlik aravachasida harakatlanuvchi shaxslarning bahor-kuz mavsumida kundalik kiyishiga mo'ljallangan erkaklar ko'ylagi, polo va shimi, sport komplektining me'yoriy-texnik xujjatlari "Golden Home Textile" MChJ, "Nurtex" MChJ, "BHR OUTPUT" MChJ va "IMRON TEXTILE GROUP" XK korxonalarida sinovdan o'tkazildi va ishlab chiqarishga joriy etildi ("O'zto'qimachilik sanoati" Uyushmasining 2025 yil 15 dekabrda №02/06-2898 guvohnomasi). Natijada, kundalik va sport komplektlarning konstruksiyasi va o'ziga xos ishlov berish texnologiyasining qulayligiga, yechish va kiyishda harakatini cheklamasligiga va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni mahalliy xom ashyodan ishlab chiqarish hisobiga iqtisodiy xarajatlar kamayishiga erishilgan.

Mahsulotlar partiyasini sotishdan olingan iqtisodiy samara (har bir turdagi 100 donadan) 248 026117 mln. so'mni tashkil etadi, ushbu modellarni ishlab chiqarish importga nisbatan arzonroq bo'lib, xarajatlarning 26,8% ga kamayishiga olib keladi.

XULOSA

1. Statistik ma'lumotlar, ilmiy-texnik va tibbiy ma'lumotlarni tahlili asosida tayanch-harakat tizimi buzilgan bemorlarning xususiyatlari, nogironlik sabablari, nogironning jismoniy holati (jarohatning lokalizatsiyasiga qarab shikastlanish darajasi va boshqalar) aniqlandi. Insonlarning tana tuzilishi xususiyatlarini, mintaqaning iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda moslashuvchan kiyimlarni yaratish zarurati asoslangan.

2. Nogironlarning vaqt byudjeti va turmush tarzini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar asosida moslashuvchan kiyimlarni loyihalashga qo'yiladigan maxsus talablar majmuasi shakllantirildi. Nogironning turli hayotiy vaziyatlardagi ehtiyojlarini qondiradigan kiyimlarning asosiy nomenklaturasi aniqlandi. Bazaviy nomenklaturaga quyidagilar kiritilgan: uy, uxlash va dam olish uchun, ko'chaga chiqish va sayr qilish uchun, kundalik/ishbilarmonlik, sport va rehabilitatsiya, tantanali/ijtimoiy, tibbiy/reabilitatsiya kiyimlari.

3. Umurtqa pog'onasi va orqa miya shikastlangan shaxslarning tanlab olingan antropometrik tadqiqot natijalari (N=130 nafar) nogironlik va u bilan bog'liq turmush tarzining nogiron-aravachada harakatlanuvchi shaxslar tana tuzilishi morfologiyasiga yaqqol ta'sirini va ko'pincha kiyimning moslashish nuqsonlariga olib keladi.

Erkaklar orasida eng ko‘p uchraydigan gavda tuzilishi 176-104-90 o‘lchamli tipik qomatga mos kelishi aniqlandi. Bu turdagi erkaklar gavdasida yog‘ to‘planishi bir tekis taqsimlangan, to‘la tipga mansub, qaddi biroz egilgan va yelkalari normal holatda bo‘ladi.

4. Dinamik-antropometrik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, aravachadagi xarakterli harakatlarda tana o‘lchamlarining dinamik o‘shish qiymatlari, konstruktiv qo‘shimchalarning ratsional parametrlari aniqlandi. Nogironlar aravachasidagi shaxslarning ko‘ylagi va sport kiyimidagi erkinlik qo‘shimchalari qiymatlarini standart mahsulotlarga nisbatan oshirish taklif etildi (Pg 12,0 sm gacha, Pspr 5,5 sm gacha).

5. “Inson-kiyim-muhit” tizimi elementlari ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olgan obyektiv biologik-fiziologik baholash asosida moslashuvchan kiyimning qulaylik modeli ishlab chiqildi. Qulaylikning quyidagi toifalari ajratilgan: funksional, fiziologik va ijtimoiy-psixologik qulay, kiyimni loyihalashda ularni hisobga olish kerak.

6. Funksional kiyimlarning ikki guruhi: maishiy (ko‘ylak+shim+polo) va sport (kurtka+shim+futbolka) qulayligini belgilovchi materiallar tizimlarining xususiyatlari bo‘yicha kompleks eksperimental tadqiqotlar o‘tkazildi, natijada o‘rganilayotgan xususiyatlarning gigiyenik, ekspluatatsion va deformatsion sifat ko‘rsatkichlarining raqamli qiymatlari o‘rnatildi, bu esa materiallarni moslashuvchan kiyim paketlariga konfeksiyalashda uning ishlash sharoitlariga qarab differensial yondashuvning maqsadga muvofiqligini tasdiqladi.

7. O‘xshashlik nazariyasidan foydalangan holda qulaylik mezoni bo‘yicha moslashuvchan kiyimlarni (ko‘ylak va sport kostyumi misolida) loyihalash va tayyorlash uchun materiallarni konfeksiyalash usuli taklif etilgan.

8. Kiyimlarga qo‘yiladigan gigiyenik talablarni oshirish maqsadida Ag nanozol va seritsin asosidagi nanomodifikatsiyalangan kompozitsiya yordamida moslashuvchan kiyimning baza qatlami materiallariga antibakterial ishlov berish samaradorligi tavsiya etildi va tajriba yo‘li bilan tasdiqlandi. Modifikatsiyalangan materiallarning 20 sikl yuvishdan keyin ham yuqori va barqaror biotsid faolligi isbotlangan.

9. Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo‘lgan insonlar uchun tibbiy muolajalarni o‘tkazish va bemorlarni parvarish qilishni osonlashtiradigan kundalik va sport kiyimlarining original konstruktiv-texnologik yechimlari taklif etildi.

10. Tayanch-harakat tizimi buzilgan shaxslarning funksional va ergonomik xususiyatlarini oshirishni, hamda tibbiy-ijtimoiy rehabilitatsiyasiga ko‘maklashishni ta‘minlovchi kiyimlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy va tajribaviy tadqiqot natijalari asosida:

nogironlik aravachasida harakatlanuvchi shaxslarning bahor-kuz mavsumida kundalik kiyishiga mo‘ljallangan erkaklar ko‘ylagi, polo va shimi, sport komplektining me‘yoriy-texnik xujjatlari “Golden Home Textile” MChJ, “Nurtex” MChJ, “BHR OUTPUT” MChJ va “IMRON TEXTILE GROUP” XK korxonalarida sinovdan o‘tkazildi va ishlab chiqarishga joriy etildi (“O‘zto‘qimachilik sanoat” Uyushmasining 2025 yil 15 dekabrda №02/06-2898 guvohnomasi). Natijada, kundalik va sport komplektlarning konstruksiyasi va o‘ziga xos ishlov berish

texnologiyasining qulayligiga, yechish va kiyishda harakatini cheklamasligiga va import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni mahalliy xom ashyodan ishlab chiqarish hisobiga iqtisodiy xarajatlar kamayishiga erishilgan.

Mahsulotlar partiyasini sotishdan olingan iqtisodiy samara (har bir turdagi 100 donadan) 248 026117 mln. so'mni tashkil etadi, ushbu modellarni ishlab chiqarish importga nisbatan arzonroq bo'lib, xarajatlarning 26,8% ga kamayishiga olib keladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/2025.27.12.Т.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ
ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

ТАШКЕНБАЕВА ТАХМИНА БАХТИЁРОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДА ПРОЕКТИРОВАНИЯ ОДЕЖДЫ
ДЛЯ ЛЮДЕЙ С НАРУШЕНИЕМ ОПОРНО-ДВИГАТЕЛЬНОГО
АППАРАТА**

05.06.04-Технология швейных изделий и дизайн костюма

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2025.3.PhD/T5997.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Ученого совета при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности (www.titli.uz) и на Информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Нигматова Фатима Усмановна
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Абдукаримова Машхура Абдураимовна
доктор технических наук, профессор

Шарипова Саодат Толкуновна
доктор философии по техническим наукам

Ведущая организация:

Бухарский государственный технический университет

Защита диссертации состоится 19 февраля 2026 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.T.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности по адресу: 100100., г. Ташкент, Яккасарайский район, улица Шохжахон, дом 5. Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж, 222-я аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08, факс: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (диссертация зарегистрирована за №274) Адрес: г. Ташкент, Яккасарайский район, улица Шохжахон, дом 5. Тел.: (+99871) 253-06-06, (+99871) 253-08-08.

Автореферат диссертации разослан 05 февраля 2026 года.
(реестр Протокола рассылки №274 от 05 февраля 2026 года).



Х.Х. Камилова

Председатель Научного совета по присуждению
ученых степеней, д.т.н., профессор

А.З. Маматов

Учёный секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

Н.Р. Ханхаджаева

Председатель Научного семинара при научном совете
по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире более миллиарда человек имеют ту или иную форму инвалидности. Объем мирового рынка продукции и услуг, связанных с проектированием специализированной одежды для людей с нарушением опорно-двигательного аппарата, демонстрирует устойчивый рост под влиянием демографических изменений, повышения уровня доступной моды и расширения социальной интеграции инвалидов. По оценкам экспертов, стоимость глобального рынка адаптивной одежды увеличилась с 12,5 миллиарда долларов США в 2019 г. до прогнозируемых 29,8 миллиарда долларов США в 2032 г¹. Современные исследования показывают, что рынок адаптивной и функциональной одежды развивается неравномерно по регионам: 42% доли рынка приходится на Азиатско-Тихоокеанский регион, 24% — на Северную Америку и 20% — на Европу, что определяется ростом стареющего населения, усилением государственной поддержки инклюзивных продуктов и повышенным спросом на комфортные и функциональные решения.

В мире ведутся комплексные научно-исследовательские работы, направленные на разработку и совершенствование методов проектирования одежды для людей с нарушением опорно-двигательного аппарата на основе современных цифровых и инженерно-конструкторских технологий, а также на повышение эффективности процессов адаптивного конструирования и моделирования изделий. В данном направлении приоритетными считаются исследования по совершенствованию методов динамико-антропометрического анализа, эргономического моделирования и интеграции модульных и трансформируемых элементов одежды, обеспечивающих удобство эксплуатации и функциональность изделий. В этом аспекте особое внимание уделяется повышению уровня комфорта и безопасности одежды, улучшению её гигиенических, эксплуатационных и реабилитационных свойств, а также разработке ресурсосберегающих и экологически ориентированных технологий проектирования, включая цифровые методы трёхмерного сканирования, виртуальной примерки и персонализированного конструирования, требующие минимальных временных и материальных затрат.

В нашей республике реализуются комплексные меры по развитию легкой промышленности, внедрению инновационных технологий проектирования одежды и поддержке научно-исследовательской и производственной деятельности предприятий отрасли адаптивной одежды, что позволяет достигать устойчивых результатов в повышении качества и функциональности выпускаемых изделий. В Стратегии «Узбекистан – 2030» по дальнейшему развитию Республики Узбекистан на 2023–2030 годы определены такие важные задачи, как эффективное использование научно-технического потенциала, развитие высокотехнологичных производств и внедрение цифровых решений

¹Global Adaptive Clothing Market – Growth Trends and Forecasts

²Указ Президента Республики Узбекистан УП-158 от 11 сентября 2023 года о стратегии «Узбекистан-2030»

в промышленность. В реализации этих задач важное значение имеют совершенствование методов проектирования одежды для людей с нарушением опорно-двигательного аппарата, повышение эргономичности и безопасности изделий, обеспечение их конкурентоспособности на внутреннем и внешнем рынках, а также разработка усовершенствованных ресурсосберегающих и энергоэффективных технологий конструирования и моделирования.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5989 от 5 мая 2020 года «О неотложных мерах по поддержке текстильной и швейно-трикотажной промышленности», Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-4063 от 18 декабря 2018 года «О мерах по профилактике неинфекционных заболеваний, поддержке здорового образа жизни и повышению уровня физической активности населения», № ПП-411 от 26 октября 2022 года «О дополнительных мерах по обеспечению населения качественными лекарственными средствами и изделиями медицинского назначения», №ПП-88 от 27 февраля 2024 года «О мерах по совершенствованию системы обеспечения нуждающихся лиц протезно-ортопедическими изделиями и техническими средствами реабилитации», а также других нормативно-правовых актах, ориентированных на социальную защиту и поддержку лиц с инвалидностью.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики по направлению: П. «Энергетика, энерго- и ресурсосбережение».

